

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI  
RESPUBLIKA O'RTA TIBBIYOT VA FARMASEVTIKA XODIMLARI  
MALAKASINI OSHIRISH VA ULARNI IXTISOSLASHTIRISH MARKAZI**

**«KELISHILDI»**

Respublika o'rtta tibbiyot va  
farmasevtika xodimlari  
malakasini oshirish va ularni  
ixtisoslashtirish markazi  
hududiy xay'at raisi  
M.I. Yakimova \_\_\_\_\_  
03 2025 y.



**«TASDIQLAYMAN»**

Respublika o'rtta tibbiyot va  
farmasevtika xodimlari malakasini  
oshirish va ularni ixtisoslashtirish  
markazi direktori  
L.X. Musadjanova \_\_\_\_\_  
03 2025y.



**Bilimlar sohasi: Sog'liqni saqlash**

**BOLALAR GEMATOLOGIYASI, ONKOLOGIYASIDA HAMSHIRALIK  
PARVARISHI, HAMDA PALLIATIV YORDAM KO'RSATISH**

(sikli bo'yicha malaka oshirish guruhlar uchun)

**O'QUV DASTURI**

(144-kredit)

**Toshkent – 2025 yil**

**TUZUVChILAR:**

SH.Q. Xo'jayev

Bolalar gematologiyasi, onkologiyasi va immunologiyasi ilmiy amaliy tibbiyot markazi bosh shifokor o'rinbosari t.f.n

Sh.N.Jo'rayeva

Bolalar gematologiyasi, onkologiyasi va immunologiyasi ilmiy amaliy tibbiyot markazi bosh hamshirasi

U.B.Ergasheva

RO'TFXMO va IM o'qituvchisi

**TAQRIZChILAR:**

N.B.Aripova

Bolalar gematologiyasi, onkologiyasi va immunologiyasi ilmiy amaliy tibbiyot markazi 2-onkogematologiya bo'limi mudiri t.f.d.

F.E.Xaitov

Bolalar gematologiyasi, onkologiyasi va immunologiyasi ilmiy amaliy tibbiyot markazi jarrohlik bo'limi shifokori

O'quv dasturi Respublika o'rta tibbiyot va farmasevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazining Pedagogik kengashida ko'rib chiqildi va tasdiqlashga tavsiya etildi.

« 4 » 0320.25.

bayonnoma № 2/1

Pedagogik kengash raisi



L.X.Musadjanova

O'quv dasturi direktorlar kengashida ko'rib chiqildi, muhokama qilindi, tasdiqlashga tavsiya etildi.

« 5 » 0320.25.y.

bayonnoma № 2

## **Kirish**

O‘zbekiston Respublikasida o‘rta tibbiyot xodimlarini tayyorlash, malakasini oshirish, tibbiyot muassasalarida hamshiralik ishini xalqaro andozalarga mos tarzda tashkil etish borasida zamonaviy tizim yaratilgan. Mazkur o‘quv dasturi O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 7 apreldagi “Tibbiy-sanitariya sohasida kadrlarni tayyorlash va uzluksiz kasbiy rivojlantirishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ 4666-sonli qarorlari,

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021yil 27 may “Aholiga gematologiya va onkologiya xizmatini ko‘rsatishni takomillashtirish to‘g‘risidagi PQ-5130 sonli qarori, O‘zbekiston respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 2023yil 19 apreldagi №83-son “O‘zbekistonda bolalar gematologiyasi, onkologiyasi va klinik immunologiyasi sohasini rivojlantirish to‘g‘risidagi” buyrug‘i va O‘zbekiston Respublikasi Sogliqni saqlash vazirligining 2024 yil 28 oktabr 333-sonli “O‘rta tibiyot va farmasevtika xodimlarining malakasini oshirish va qayta tayyorlashga qo‘yiladigan Davlat talablari” ijrosini ta‘minlash maqsadida “Bolalar gematologiyasi,onkologiyasida hamshiralik parvarishi,hamda palliativ yordam ko‘rsatish” o‘quv dasturi yaratildi.

O‘quv dasturda onkogematologiya yo‘nalishi bo‘yicha tegishli mavzular kichik mavzu shaklida qamrab olingan. Har bir mavzu bo‘yicha o‘quv materiallari ta‘riflab berilgan va ushbu mavzuni to‘liq o‘zlashtirish hamda talabga muvofiq yetarli nazariy va amaliy bilimlarni egallash uchun zarur bo‘lgan hajmda taqdim etilgan.

“Bolalar gematologiyasi, onkologiyasida hamshiralik parvarishi,hamda palliativ yordam ko‘rsatish” o‘quv dasturi yo‘nalishning o‘quv rejasi asosida tayyorlangan bo‘lib, hamshiralarni 144 kredit malaka oshirishlari uchun mo‘ljallangan. Shu sohada faoliyat olib borayotgan hamshiralarni har tomonlama yetuk, ijtimoiy-gumanitar, umumkasbiy va mutaxassislik fanlari bo‘yicha yetarli bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlariga erishish, ularning faoliyatini yanada takomillashtirish, fan bo‘yicha yangi nazariy bilimlarni amaliy ko‘nikmalar orqali mustahkamlash va chuqur bilimlarni egallashga qaratilgan.

### **1.1. Maqsad:**

Onkogematologiya sohasi hamshirasining mavjud kompetensiyalarini takomillashtirish va kasbiy faoliyat uchun zarur yangi bilim va ko‘nikmalarini egallash va kasbiy darajasini oshirish, o‘rta tibbiyot xodimlarini onkogematologik bemorlarni parvarishlash vaqtida har tomonlama yetuk, yetarli bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlariga erishish, ular faoliyatini yanada takomillashtirish, malakali tibbiy yordam ko‘rsatish samaradorligini ko‘tarish, yangi nazariy bilimlarni amaliy ko‘nikmalar orqali mustahkamlash va chuqur bilimlarni egallashga qaratilgan.

## **1.2. Vazifalar:**

-O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining davolash profilaktika muassasalarida amalda bo‘lgan buyruqlarini ish faoliyatida qo‘llash.

-Onkogematologiya sohasida faoliyat yuritadigan tibbiy hamshiralalar uchun SOM (standart operatsion muolajalar)ni amaliyotga tadbiiq qilish.

-Onkogematologiya va transfuziologiya statsionarlarida shifoxona ichi infeksiyalari yuzaga kelishi va tarqalishining oldini olishni ta‘minlaydigan tashkiliy, davolash-profilaktik, sanitariya-gigiyenik, epidemiyaga qarshi dezinfeksiya qilish tadbirlarini olib borish.

-Tibbiyot sohasidagi yangiliklar, zamonaviy apparaturalar yordamida bemorlarni tekshirishga tayyorlash va parvarishlash, salomatligini qayta tiklash va yanada mustahkamlashni olib borish.

-Bemorlar hayotiga xavf soluvchi holatlar va ularga olib keluvchi xavf omillarida shoshilinch tez tibbiy yordam ko‘rsatish bo‘yicha nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarni takomillashtirish.

-Birlamchi murojaat qilgan bemorlarga shifokor ko‘rsatmalari bo‘yicha tez va samarali yordam ko‘rsatish.

-Gemotransfuziya muolajalariga bemorlarni tayyorlash.

-Onkogematologik bemorlarga palliativ davo davrida hamshiralik parvarishini to‘g‘ri tashkillashtirish.

-Palliativ davoga muhtoj bolalarni parvarishlashda ularning yaqinlariga maslahatlar berish.

-Kimyoterapiya,hamda nur terapiya olgan bemorlarni holatini kuzatish va natijalarini shifokorga yetkazish.

-Intensiv palatalarda o‘tkaziladigan sanitar,epidemiologik chora tadbirlarni yo‘riqnoma asosida o‘tkazish.

-Favqulotda holatlarda bemor ahvolini baholash, asoratlarning oldini olish chora-tadbirlarini qo‘llay olish.

## **1.3. Ta‘lim oluvchilar toifasi (kontingenti):**

O‘quv dastur onkogematologiya sohasi hamshiralari malakaviy tavsifnomasi va lavozim yo‘riqnomalari muvofiq, ya‘ni mutaxassisligini *tasdiqlovchi hujjati* bo‘lgan hamshiralalar uchun mo‘ljallangan.

## **1.4. O‘quv dasturni o‘zlashtira olish uchun zarur bo‘lgan tinglovchi kompetensiyasi:**

- Onkogematologiya yo‘nalishi hamshirasining o‘zida kasbiy tajriba, malaka va mahoratni takomillashtirish yo‘lida aniq maqsad va puxta o‘ylangan vazifalar asosida amaliy harakatlarni tashkil etish.

- kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarni egallash va ularni amalda yuqori darajada qo‘llay olish.

- mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borish, yangi axborotlarni o‘rganish, yangi ma‘lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o‘z faoliyatida qo‘llay bilish.

- kasbiy faoliyatda bemorlar bilan muloqotga kirisha olish, sog‘lom psixologik muhitni yarata olish, turli salbiy psixologik ziddiyatlarni o‘z vaqtida anglay olish va bartaraf eta olish.

- kasbiy o‘shishga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o‘z ichki imkoniyatlarini namoyon qilish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan foydalana olish.

-standart operatsion muolajalarni amaliyotga tadbiq qilish qobiliyatiga ega bo‘lish.

- onkogematologik bemorlarga palliativ davo davrida hamshiralik parvarishini to‘g‘ri tashkillashtirish va o‘tkazish ko‘nikmalariga ega bo‘lish.

-jahon andozalari talablariga mos holda muolajalarini bajarish ko‘nikmalariga ega bo‘lish.

-favqulodda vaziyatlar, kechiktirib bo‘lmaydigan holatlarni tahlil qila olish va kechiktirib bo‘lmaydigan yordamni ko‘rsatish qobiliyatini yangilash.

-mutaxassisligi bo‘yicha to‘liq nazariy va amaliy bilimlarga ega bo‘lgan, uzluksiz o‘z malakasini oshirishga tayyor bo‘lgan, o‘zgaruvchan sharoitlarga tez moslasha oladigan, etika va deontologiya asoslarini bilishi va rioya qilishi.

### **1.5. Dasturning dolzarbligi:**

Onkogematologiya va transfuziologiya sohasi hamshiralarning malakasini oshirish, hozirgi davr talablariga mos ravishda zamonaviy, malakali, sifatli tibbiy xizmat ko‘rsatishni ta‘minlaydi.

Sog‘liqni saqlash muassasalarida hamshiraning to‘liq mustaqil ishlay olishi va kasbiy faoliyat davomida malakasini oshirib borishi, bemorlarga ish joyi va egallagan lavozimiga mos bo‘lgan kerakli malakaliy yordamni ko‘rsata oladigan imkoniyatda bo‘lishini ta‘minlaydi.

Sog‘liqni saqlash sohasida qabul qilingan meyoriy hujjatlardan foydalanish imkonini beradi.

O‘quv dasturining dolzarbligi amaliyotga asoslangan va muammolarga yo‘naltirilgan yondoshuv asosida amaliy tibbiy yordamning zamonaviy ehtiyojlaridan kelib chiqib, o‘quv materiallari va jarayonlar O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash tizimining va mutaxassislikning o‘ziga xos kasbiy ehtiyojlariga qaratilgan. Dastur milliy va jahon standartlari meyoriy hujjatlari asosida tuzildi.

**1.6. Dastur hajmi:** 144kredit (kuniga 6 soat, haftasiga 36 kredit).

### **1.7. O‘qish shakli:**

- kunduzgi
- on/offline, masofaviy /an‘anaviy o‘qish ishdan ajralgan/ ajralmagan holda

**1.8. Mashg‘ulotlarni o‘tish tartibi:** Mashg‘ulotlar O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash vazirligining 2020 yil 15 iyundagi “Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish to‘g‘risidagi” 160-son buyrug‘i va markazning ichki tartib-qoidalari asosida

rejalashtiriladi va amalga oshiriladi. Mashg'ulotlar 9-<sup>00</sup> da boshlanib, 13-<sup>40</sup> da tamom bo'ladi. Tushlik - 30 daqiqa.

**1.9. Malaka oshirishdan so'ng:** o'quv kursni to'liq o'zlashtirgan va yakuniy attestatsiyani topshirgan tinglovchilarga "Bolalar gematologiyasi, onkologiyasida hamshiralik parvarishi, hamda palliativ yordam ko'rsatish" bo'yicha umumiy malaka oshirganligi haqida Davlat talablari namunasidagi sertifikat taqdim etiladi.

## **2. REJALASHTIRILAYOTGAN TA'LIM NATIJALARI**

### **2.1. Rejalashtirilayotgan ta'lim (natijalari)dan so'ng tinglovchi kompetensiyasi:**

tibbiyot sohasidagi yangiliklar, tibbiyotdagi zamonaviy tekshiruv usullari, ularga bemorlarni tayyorlash;

- hayotga xavf soluvchi holatlarda bemorlarga tezkor yordam ko'rsatish chora- tadbirlari o'tkazish;
- bemorlarga tashxis qo'yishda zamonaviy tekshirish usullaridan foydalanish, muolajalarga bemorni ruhan va jismonan tayyorlash va parvarishlash, hozirgi kunda qo'llanilayotgan yangi tibbiy texnologiyalar to'g'risida ma'lumot berish.
- -kimyoterapiya va nur terapiyasiga bemorlarni tayyorlash.
- -kichik jarrohlik aralashuvi(sternal lyumbal punksiyalar, o'mrov osti kateterlari hamda periferik kateterlar)ga bemorlarni tayyorlash.
- -gemotransfuziya muolajalariga bemorlarni tayyorlash.
- -kimyoterapiyani bemorlarda asoratsiz o'tkazish texnikalari bilan tanishish.
- -palliativ davoga muhtoj bemorlarni parvarishlash usullari.
- onkologik bemorlar bilan ishlashda foydalaniladigan tibbiy va texnik jihozlar bilan ishlash, shaxsiy kompyuter texnologiyalari, turli manbalardan ma'lumot olish, global kompyuter tarmoqlarida ma'lumotlar olish ko'nikmasini rivojlantirish;
- konfidensial ma'lumotlar bilan ishlashda xamshiralik etikasi, qonunlar, meyoriy-xuquqiy talablarga rioya qilish;
- onkologik kasalliklarni erta va yashirin turlarini, havf omillarini aniqlash uchun zamonaviy profilaktik ishlarni amalga oshirib dispanser ko'riklarini tashkil etishni mukammallashtiradi;
- onkologik kasalliklari erta tashxis qo'yishda bemorlarni zamonaviy tekshirish usullariga tayyorlash ko'nikmalari yangilash;
- nur terapiyaga tegishli meyoriy hujjatlarni malakali yurish qobiliyati oshadi;
- bemorlarni nur olishga ruhan va jismonan tayyorlash, nur olgandan keyingi davrda bemorlarni parvarish ko'nikmalari yangilanadi;
- shifokorgacha shoshilinch holatlarni o'z vaqtida tashhislash, birlamchi tezkor yordamni amalga oshirish, hamda o'rnatilgan tartibda hujjatlashtirish ko'nikmalarini mustahkamlaydi;

- hozirgi kunda qo'llanilayotgan yangi tibbiy texnologiyalar to'g'risida ma'lumotlarga ega bo'ladi.

### **3.0. "Bolalar gematologiyasi, onkologiyasida hamshiralik parvarishi, hamda palliativ yordam ko'rsatish" kursi o'quv rejasi**

	Modul va mavzular nomi	Auditoriya mashg'ulotlari				
		Kredit	Nazariy	Amaliy	Seminar	Attestatsiya
1.0	<b>Kasbiy rivojlantirish moduli</b>	<b>32</b>	<b>16</b>	<b>16</b>		
1.1	Modul.O'zbekiston Respublikasining tibbiyot sohasidagi davlat siyosati	4	4	-		
1.2	Modul.Tibbiyotda zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalari	6	2	4		
1.3	Modul .Sanitariya epidemiologik tartib meyorlari va infeksiyon nazorat	6	4	2		
1.4	Modul .Sterilizatsiyada zamonaviy usullar va texnika xavfsizligi	6	2	4		
1.5	Modul .Sog'lom turmush asoslari, to'g'ri ovqatlanish mezonlari va jismoniy faollik	10	4	6		
<b>2.0</b>	<b>Mutaxassislik fanlar</b>	<b>104</b>	<b>44</b>	<b>60</b>		
2.1	Modul.Gematologiya ,onkogematologiya sohasidagi islohotlar va meyoriy hujjatlar. Hamshiraning vazifalari.	6	4	2		
2.2	Modul. Onkogematologiya sohasida faoliyat yuritadigan hamshiralar uchun SOM(standart operatsion muolajalarni) amaliyotga tadbiiq qilish.	12	2	10		
2.3	Modul .Bolalar onkogematologik kasalliklari tasnifi.Hamshiralik parvarishini olib borish.	12	6	6		
2.4	Modul .Onkogematologik bemorlarda zamonaviy diagnostika usullari.	12	6	6		
2.5	Modul .Gematologik va onkologik kasalliklar bilan kasallangan bolalar va o'smirlarda hamshiralik nazorati va parvarishi.	12	4	8		
2.6	Modul. Immunologik kasalliklar. Bemorlarda hamshiralik parvarishi.	8	6	2		
2.7	Modul.Onkogematologik kasalliklarda jarrohlik amaliyoti oldi va keyingi davrlarida hamshiralik parvarishi va nazorati.	12	4	8		
2.8	Modul.Kimyoterapiyaning asosiy tushunchalari. Kimyoterapiya bo'limida hamshiraning vazifalari.	6	2	4		

2.9	Modul.Onkologik kasalliklarda nur terapiya o'tkazilishiga bemorlarni tayyorlash.	6	2	4		
2.10	Modul.Onkogematologik kasalliklarda bemorlarga palliativ yordam ko'rsatishda hamshira yondoshuvi.	12	6	6		
2.11	Modul .Favqulodda holatlarda tez tibbiy yordam ko'rsatish.	6	2	4		
3.0	<b>Tanlov fanlar moduli</b>	4	-		4	
4.0	<b>Attestatsiya (integral sinov)</b>	4				4
	<b>Jami</b>	<b>144</b>	<b>60</b>	<b>76</b>	<b>4</b>	<b>4</b>

**“Bolalar gematologiyasi,onkologiyasida hamshiralik parvarishi,hamda palliativ yordam ko'rsatish” malaka oshirish kursi o'quv modullarining mazmuni**

**1.1.Modul:O'zbekiston Respublikasining tibbiyot sohasidagi davlat siyosati.**

O'zbekiston Respublikasining tibbiyot sohasidagi davlat siyosatining asosiy yunalishlari.Sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirishning maqsad va vazifalari. Sog'liqni saqlash tizimida olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar. 2019-2025 yillarda O'zbekiston Respublikasining Sog'likni saqlash tizimini rivojlantirish konsepsiyasining maqsadi va vazifalari. Onalar va bolalarga tibbiy yordam ko'rsatish tizimini takomillashtirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar. Davlat-xususiy sheriklik va tibbiyot turizmini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun,mohiyati.Sog'liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi moduli va davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmining xuquqiy asoslari.Korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy prinsiplari va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari

**1.2.Modul:Tibbiyotda zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalari.**

Tibbiyot sohasida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish. Tibbiyotda qo'llanilayotgan zamonaviy axborot texnologiyasi qurilmalarining dasturiy va texnik ta'minoti to'g'risida nazariy va amaliy bilimlar. Tibbiy statistik ma'lumotlarni to'g'ri tahlil qilish va ulardan kasallikning oldini olish yoki davolashda qo'llash.Axborot texnologiyalaridan foydalanish borasida amaliy ko'nikmalarga ega bo'lish, internet tarmog'ida ishlash, axborot qidirish va ulardan foydalanish, tibbiyot axborot tizimlari hususiyatlari, ma'lumotlar bazasini tashkil etish, ekspert tizimlari va axborot xavfsizligi asoslarini bilish.

### **1.3.Modul:Sanitariya epidemiologik tartib meyorlari va infeksiyon nazorat.**

Davolash profilaktika muassasalarida shifoxona ichi infeksiyasini oldini olish borasida qabul qilingan normativ hujjatlar. Shifoxona ichi infeksiyasini oldini olishda hamshiralarning vazifalari. Tibbiy muolajalar orqali yuqadigan kasalliklarni oldini olish.Yuqumli kasalliklar (o'ta havfli va karantin infeksiyalar, OITS)ni tarqalishini oldini olish.OIV/OITSGa oid normativ hujjatlar. OIV etiologiya va patogenezi, epidemiologiyasi. OIV/OITS infeksiyasi.

Kasalliklardan (COVID19) himoyalalanish tamoyillari.Himoya kiyimlari va uladan foydalanish tartibi.

### **1.4.Modul:Sterilizatsiyada zamonaviy usullar va texnika xavfsizligi.**

Sterilizatsiyani olib borish xonalaridagi aseptika va antiseptika tadbirlari, ularning talab darajasida bajarilish tartib va qoidalari. Markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan sterilizatsiya bo'limlari turlari. Zamonaviy sterilizatsiya apparatlari va texnika xavfsizligi masalalari. Sterilizatsiyaning sifatini ta'minlovchi tadbirlar, uni tekshirish uchun zarur indikatorlar.

### **1.5. Modul:Sog'lom turmush asoslari,to'g'ri ovqatlanish mezonlari va jismoniy faollik.**

Sog'lom turmush tarzini tashkil etish asoslari. Sog'lom turmush tarzini shakllantirishda maqsadli guruhlar bilan ishlash. Atrof muhit va ekologik omillarning salomatlikka ta'siri, to'g'ri ovqatlanish prinsiplari, kun tartibini to'g'ri tashkil etish, jismoniy faollik va chiniqishning salomatlikdagi ahamiyati, zararli odatlarning organizmga ta'siri, tibbiy ko'riklarni tashkil etish va aholini jalb etish.

### **2.1 Modul. Gematologiya ,onkogematologiya sohasidagi islohotlar va meyoriy hujjatlar. Hamshiraning vazifalari.**

Onkologiya va gematologiya fanining rivojlanish tarixi, maqsad, vazifalari, yutuqlari va rejalari. Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan chiqarilgan buyruqlar hamda meyoriy hujjatlar bilan ishlash. Onkogematologiya sohasidagi islohotlar va meyoriy hujjatlar. Bolalar onkologiya va gematologiyasining hozirgi kundagi maqsad va vazifalari. Onkogematologiya va immunologiya bo'limlarida hamshiraning vazifalari.Kimyoterapiya muolajalarida meyoriy hujjatlarni malakali yurishning ahamiyati.Nur terapiyaga tegishli meyoriy hujjatlarni malakali yurishning ahamiyati. Onkogematologiya sohasida malakali kadrlar faoliyat olib borishini taminlash.

### **2.2. Modul. Onkogematologiya sohasida faoliyat yuritadigan hamshiralar uchun SOM (standart operatsion muolajalar)ni amaliyotga tadbiriq qilish.**

Gemopoez xaqida tushuncha. Qon tarkibining normal ko'rsatkichlari. Qonning shakliy elementlari. funksiyalari. Qon rang ko'rsatkichi. Gemoglobin turlari,birikmalari. Onkogematologiya sohasida faoliyat yuritadigan hamshiralarni lavozim yo'riqnomalari asosida vazifalarni to'laqonli bajarishi.

Onkogematologik kasallikka chalingan bemorlar parvarishida SOM (standart operatsion muolajalar ) talablari asosida ishni tashkillashtirish. Onkologik kasalliklarda o'tkaziladigan kichik jarrohlik amaliyotlari xaqida tushuncha.(SOM) Onkologiya va gematologiyada qo'llaniladigan yo'riqnomalarga qat'iy amal qilish. Standart operatsion muolajarni o'z vaqtida yo'riqnomasida o'tkazish. Bemorlarga sifatli, malakali tibbiy yordam ko'rsatish. Onkologiya bo'limlarida SOM lari asosida muolajalarni samarali o'tkazish. Standart operatsion muolajarni asoratsiz o'tkazilishini ta'minlash.

### **2.3. Modul. Bolalar onkogematologik kasalliklari tasnifi.Hamshiralik parvarishini olib borish.**

Bolalar onkogematologik kasalliklar turlari,tasnifi, kelib chiqish sabablari. Onkologik kasalliklar tasnifi bo'yicha davo muolajalari davrida hamshiralik parvarishi. Onkologik kasalliklarida davo muolajalarini asoratsiz o'tkazish. Gematologik kasalliklar tasnifi bo'yicha davo muolajalari davrida hamshiralik parvarishi. Gematologik kasalliklarida davo muolajalarini asoratsiz o'tkazish. Onkogematologik kasalliklarida shifoxona ichi infeksiyalarini tarqalishini oldini olish.Davo muolajalari davomida kuzatiladigan asoratlarda tez tibbiy yordam ko'rsatish. Davo muolajalari davrida bemorlar ovqat ratsionini nazorat qilish.

### **2.4. Modul. Onkogematologik bemorlarda zamonaviy diagnostika usullari.**

Onkologik kasalliklarni aniqlashda diagnostik tahlil turlari. Onkologik kasalliklarni aniqlashda biopsiya, ko'mik va qon tahlillarini o'tkazishga bemorlarni tayyorlash. Onkologik bemorlarda tahlillarni standart algoritm bo'yicha o'tkazish. Gematologik kasalliklarni aniqlashda diagnostik tahlil turlari. Gematologik kasalliklarni aniqlashda ko'mik va qon tahlillarini o'tkazishga bemorlarni tayyorlash. Gematologik bemorlarda tahlillarni standart algoritm bo'yicha o'tkazish. Tahlil jarayonlarida qat'iy sanitariya qoidalari talablari bo'yicha ishlash.Diagnostik tahlillarga bemorlarni jismoniy va ruhiy tayyorlash.Onkomarkyor taxlillarini standart asosida o'tkazish.

### **2.5.Modul. Gematologik va onkologik kasalliklar bilan kasallangan bolalar va o'smirlarda hamshiralik nazorati va parvarishi.**

Onkologik kasalliklarda kimyoterapiya va nur terapiyasi oldi davrida hamshiralik nazorati. Bemor bolaning holatini nazorat qilish.

Onkologik kasalliklar bilan kasallangan bolalar va o'smirlarni nur va kimyoterapiyaga tayyorlash. Onkologik kasalliklarda kimyoterapiya va nur terapiyasidan keyingi davrida hamshiralik parvarishi. Gematologik kasalliklarda kimyoterapiya oldi davrida hamshiralik nazorati. Gematologik kasalliklar bilan kasallangan bolalar va o'smirlarni kimyoterapiyaga

tayyorlash. Gematologik kasalliklarda kimyoterapiyadan keyingi davrida hamshiralik parvarishi. Bolalar va o'smirlar psixologik holatini baholash. Bemor bolalar va o'smirlarga davro davrida shifoxona tartiblarini odatiy turmush tarziga moslashtirish. Ota-onalarga bolalarning ruhiy-emotsional holatlarini kuzatish va nazorat qilishni o'rgatish.

## **2.6 Modul. Immunologik kasalliklar. Bemorlarda hamshiralik parvarishi.**

Immunologik kasalliklar tasnifi, kelib chiqish sabablari. Immunologik kasalliklarda standart operatsion muolajalar algoritmi. Immunologik kasalliklar bilan kasallangan bemorlarda hamshiralik parvarishi. Immunologik kasalliklar bilan kasallangan bemorlarda davro muolajalarini asoratsiz o'tkazish. Davro muolajalari davrida kuzatilgan asoratlarda tez tibbiy yordam ko'rsatish. Bemorlarga qo'llaniladigan immun preparatlarni yo'riqnoma asosida qo'llash. Davro muolajalaridan keyin bemor holatini baholash

## **2.7 Modul. Onkogematologik kasalliklarda jarrohlik amaliyoti oldi va keyingi davrlarida hamshiralik parvarishi va nazorati.**

Onkologik kasalliklarda o'tkaziladigan jarroxlik amaliyotlari oldi hamshira nazorati. Bemorlarni jarrohlik amaliyotlariga tayyorlash. Onkologik kasalliklarda o'tkazilgan jarroxlik amaliyotlaridan keyin hamshira parvarishi. Gematologik kasalliklarida o'tkaziladigan kichik jarrohlik amaliyotlari oldi hamshiralik nazorati. Bemorlarni kichik jarrohlik amaliyotlariga tayyorlash. Gematologik kasalliklarda o'tkazilgan kichik jarrohlik amaliyotlaridan keyin hamshira parvarishi. Jarrohlik amaliyotlaridan keyin bemor holatini baholash. Jarrohlik amaliyotlarida foydalanilgan narkotik va psixotrop prekursorlarni rasmiylashtirish. Jarrohlik operatsiyasidan keyin tibbiy jihozlar va materiallarni zararsizlantirish,utilizatsiya qilish.

## **2.8. Modul. Kimyoterapiyaning asosiy tushunchalari. Kimyoterapiya bo'limida hamshiraning vazifalari.**

Kimyoterapiya preparatlarining tasnifi. Kimyoterapiya preparatlarini kiritish usullari va tartibi. Kimyopreparatlarni yo'riqnoma bo'yicha saqlash. Kimyoterapiya o'tkazishga bemorlarni tayyorlash. Onkogematologik bemorlarda kimyo preparatlarini o'mrov osti va vena ichi kateterlari orqali yuborishni ta'minlash. Kimyoterapiya o'tkazishda texnika xavfsizligi qoidalariga qat'iy rioya qilish. Shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish. Kimyopreparatlarning asoratlari, ularni bartaraf qilishda hamshirik yordamini ko'rsatish. Ishlatilgan sitostatik preparatlari qoldiqlarini utilizatsiya qilish tartibi. Sitostatik preparatlardan foydalanishda avariya xolatlarida hamshiraning taktikasi.

## **2.9 Modul. Onkologik kasalliklarda nur terapiya o'tkazilishiga bemorlarni tayyorlash.**

Onkologik kasalliklarda nur terapiyasi oldi tahlillarini o'tkazish. Nur bilan davolashda radiatsion halokatlar, ularning kelib chiqish sabablari va oldini olish chora-tadbirlari. Nur bo'limida avariya holatida yoki halokatda hamshiraning harakat taktikasi. Bemorni o'sma xujayralarini joylashgan joyiga va turiga qarab nur terapevti belgilagan davo muolajasi ketma-ketligini vaqtida bajarish. Bemorga shifokor radiolog tomonidan belgilangan radiatsion davo taktikasini to'g'ri olib borish va bemorning nur kartasiga qayd etish. Nur bilan davolashda kelib chiqadigan infeksiyon asoratlar va ularda hamshiralik parvarishi. Nur terapiyadan keyin bemorlarni to'g'ri ovqatlanish mezonlari. Og'riq sindromida hamshira yordami. Radiatsion avariya hamshiraning harakati, xavfsizlik chora tadbirlar ketma-ketligi.

### **2.10 Modul. Onkogematologik kasalliklarda bemorlarga palliativ yordam ko'rsatishda hamshira yondoshuvi.**

Palliativ yordam tushunchasi. Palliativ yordamning JSSTbo'yicha asosiy tamoyillari va vazifalari. Og'ir bemorning holatini baholash va ularning ehtiyojlarini aniqlash. Onkologik kasalliklarda palliativ yordamga muhtoj bemorlar holatini to'g'ri baholash. Bemor holatni to'g'ri baholash va parvarish rejasini tuzish Parvarish rejasi asosida bemorga tibbiy va ruhiy yordam ko'rsatish. Gematologik kasalliklarda palliativ yordamga muhtoj bemorlar holatini to'g'ri baholash. Gematologik kasalliklarda parvarish rejasi asosida palliativ yordam ko'rsatish Hamshiralik parvarishini olib borish. Palliativ parvarishga muhtoj bemor va uning oilasini har tomonlama qo'llab-kuvatlash.

### **2.11. Modul. Favqulodda vaziyatlar va shoshilinch holatlarda tez tibbiy yordam ko'rsatish.**

Favqulodda vaziyatlar haqida tushuncha. Favqulodda vaziyatlar tasnifi, uning turlari, kelib chiqish sabablari, manbalari. Jabrlanuvchilarni saralash tartibi. Tibbiy saralash (trijaj usuli) va evakuatsiya qilish. Jabrlanuvchini ahvolini baholash, asosiy hayotiy ko'rsatkichlarni aniqlash. Bemor uchun zarur vaziyatni yaratish. Ommaviy talofat o'chog'ida birinchi yordam ko'rsatish: O'tkir qon ketishlarda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish. Jarohatlarda, suyak sinishida va Krash sindromida birinchi yordam ko'rsatish. Kuyishda birinchi yordam ko'rsatish. Elektr toki bilan shikastlanishda birinchi yordam ko'rsatish. O'tkir zaharlanishlarda birinchi yordam ko'rsatish. Bo'g'ilishda birinchi yordam ko'rsatish. Cho'kishda birinchi yordam ko'rsatish. Sovuq urishi va issiqlik urishida birinchi yordam ko'rsatish. Hasharotlar chaqishi va hayvonlar tishlaganda tez tibbiy yordam ko'rsatish. Terminal holatlar, klinik va biologik o'lim belgilari. Hayotiylikni ushlab turishni erta boshlash usullari. Yurak-o'pka reanimatsiyasi (SAV) va uni bajarish algortmi.

## **4. DASTURNI AMALGA OSHIRISHNING TASHKILY-PEDAGOGIK TA'MINOTI**

**4.1. O'kuv bazalari:** Respublika o'rta tibbiyot va farmatsevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi. Shifokorlar ko'chasi-2, 14-uy, davolash profilaktika muassasalari qoshidagi o'quv bazalari.

**Amaliyot bazasi:** davolash profilaktika muassasalari qoshidagi o'quv bazalari.

### **4.2. Mashg'ulotlarni o'tkazish uchun zarur jihozlar ro'yxati:**

Modul bo'yicha dars olib borish uchun nazariy, amaliy va seminar darslar o'tiladigan o'quv auditoriyalari.

Multimediali jamlanma: elektron doska, slaydlar to'plami bo'lgan rrt ko'rinishli ma'ruzalar, SD diskda ko'rgazma materiallar, videofilmlar.

Klinik amaliy ko'nikmalarni mustaxkamlash, trening o'kuv xonasi mulyaj, fantom v.b jihozlar.

Mavzular bo'yicha turli jadvallar, tasviriy ko'rgazma va qo'llanmalar,

### **4.3. ADABIYOTLAR RO'YXATI**

#### **4.3.1. Qonunchilik va meyoriy-hukukiy hujjatlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari.
2. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining buyruq va meyoriy hujjatlari.

#### **Tavsiya etilgan adabiyotlar:**

1. YE.V.Samochatova, A.G.Rumyansev "Bolalar gematologiya va onkologiyasida xamshira parvarishi."
2. A.G.Rumyansev."Sestrinskiy uxod v detskoy gematologii i onkologii"Prakticheskoye rukovodstvo dlya med.sester.
3. YEVRADO onlayn dasturi.
4. Y.Allayorov Y.Tojiboyev: "Favqulodda vaziyatlarda tez tibbiy yordam asoslari."
5. «Shifoxona ichi infeksiyalari profilaktikasi» №0342-17. Davolash-profilaktika muassasalarida dezinfeksiya va sterilizatsiya qilish tadbirlarini tashkil etish.
6. Avtoklavlash va sterilizatsiyalashda texnika xavfsizligi bo'yicha o'rta tibbiyot xodimlari uchun o'quv uslubiy qullanma. Tashkent.2009.y
7. O'zbekiston Respublikasi sanitariya qoidalari, meyorlari va gigiyenik normativlari. O'zR SanQvaM № 0365 -19.

#### **4.3.2. Elektron ta'lim resurslari**

[www.edu.uz](http://www.edu.uz)

[www.minzdrav.uz](http://www.minzdrav.uz)

<http://www.medpoisk.ru/>

<http://www.rusmedserv.com/>  
[www.medi.ru](http://www.medi.ru)  
[www.medlinks.ru](http://www.medlinks.ru)  
[www.medscape.com](http://www.medscape.com)  
[www.medland.ru](http://www.medland.ru)  
[www.med-lib.ru](http://www.med-lib.ru)  
[www.ksmed.ru/pat/gynecology](http://www.ksmed.ru/pat/gynecology)  
[www.medsan.ru](http://www.medsan.ru)

## **5.YAKUNIY ATTESTATSIYA**

### **5.1.Yakuniy attestatsiyaga qo‘yiladigan talablar,o‘tkazish shakli va baholash mezonlari.**

Yakuniy attestatsiya O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash Vazirligining 2020yil 15 iyundagi 160-sonli buyrug‘i 3-ilovasidagi «Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish ta’lim muassasalarida tinglovchilarning kasbiy bilim va ko‘nikmalarini baholash to‘g‘risidagi Nizom» ga asosan o‘tkaziladi.